

3/2023,
may-iyun
(№ 00065)



O'ZBEKISTONDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINI BOSHQARUV SAMARADORLIGI OSHIRISH YO'LLARI

Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi. xomidovqahhorali7@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5768-6010>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i16

Annotatsiya

Ushbu maqolada turistik majmualarni shakillantirish, turistik mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish uchun o'sib borayotgan barqaror real talab mavjudligi, turistik majmuani shakillanirish uchun zaruriy infratuzilma, majmuani boshqarish samaradorligini oshirish, hududlarda turistik korxonalarining innovatsion boshqaruvini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, uning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolari aniqlangan va baholash usullarini tahlil qilish, turistik majmualar tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi turistik korxonalar boshqaruv samaradorligini baholashda miqdor ko'rsatkichlarni qiyosiy taqqoslash masalasiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: turistik majmua, boshqaruv standartlari, turistik majmualar tahlili, boshqaruv usullari, dinamik tahli, innovatsiya, boshqaruv, innovatsion boshqaruv.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ТУРИСТИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хомидов Каххорали Курбонали угли

Исследователь Ферганского государственного университета

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы формирования туристских комплексов, наличие устойчивого реального спроса на использование туристских продуктов и услуг, необходимая инфраструктура для формирования туристского комплекса, повышение эффективности управления комплексом, выявлен организационно-экономический механизм осуществления инновационного управления туристскими предприятиями в регионах, его специфика и существующие проблемы и проведен анализ методов оценки, вопросу сравнительного сопоставления количественных показателей при оценке эффективности управления туристскими предприятиями, функционирующими в составе туристских комплексов, посвящена.

Ключевые слова: туристский комплекс, стандарты управления, анализ туристских комплексов, методы управления, динамический анализ, инновации, менеджмент, инновационный менеджмент.

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF TOURIST COMPLEXES IN UZBEKISTAN

Kakhkhorali Kurbonali Ugli Homidov

The Researcher of Fergana State University

Abstract

In this article, there is a growing stable real demand for the formation of tourist complexes, the use of tourist products and services, the necessary infrastructure for the formation of a tourist complex, improving the efficiency of the management of the complex, the organizational and economic mechanism for the implementation of innovative management of tourist enterprises in the regions, analysis of, in assessing the effectiveness of management of tourist enterprises operating in the structure of tourist complexes, the amount is devoted to the issue of comparative comparison of indicators.

Key words: tourist complex, management standards, analysis of tourist complexes, management methods, dynamic inspection, innovation, management, innovative management.

Kirish

O‘zbekistonning jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlantirish bevosita hududlarda turistik majmualarni shakillanishi va ularning raqobatbardoshlik darajasiga bog‘liq. Jahon iqtisodiyotining tobora globallashib borayotganligi har qanday konyunkturaviy o‘zgarishlarga qarshi tura oladigan, ichki va tashqi iqtisodiy ta’sirlarga tezlik bilan moslasha oluvchi hamda raqobatbardoshlikni ta’minlovchi turistik majmualarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Bu esa turistik majmua faoliyatida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va ularni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish, mahsulot hamda xizmat turlarini muttasil yangilab va takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmonida «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish, to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, 2026 yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish va turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish kabi dolzarv vazifalvni amalga oshirishda turistik majmualar faoliyatini rivojlantirish orqali belgilangan vazifalarni hal kilish strategiyasini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlashi o‘ta muhim ahamiyat kasb etdi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turizm sohasini rivojlantirish va boshqarish mexanizmlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda turizmni rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, biz, ushbu yo‘nalishda ba’zi mualliflarning fikr va mulohazalarini o‘rganib, ularning ilmiy yondashuvlarini umumlishtirib, turizm sohasida boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullari bo‘yicha fikrlarimizni qisqacha bayon qilamiz.

Y.V.Tishukov o‘z risolasida “Turizm industriyasi – bu mehmonxona va boshqajoylashtirishvositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, dam olish obyektlari va vositalari, tanishish, ishbilarmonlik, sog‘lomlashtirish,sport yaboshqamaqsadlardagi obyektlar,turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga

oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatini namoyon etuvchi tashkilotlar to‘plamidir[2]”, - deb e‘tirof etgan bo‘lsa, M.B.Birjakov esa “Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yo‘nalishi va tabiati, turistik mahsulotga javob beruvchi, umuminsoniy axloq va tartib tamoyillariga mos keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini ta‘minlash va qanoatlantirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan harakatlar yig‘indisidir[3]” ,- degan fikrni bildiradi.

Iqtisodchi olim M.T.Alimova o‘zining “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, boshqaruv konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterni shakllantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi[4].

Shuningdek, MDH olimlari S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkolarning “Mejdunarodniy turizm v Rossii: problemi razvitiya i upravleniya” nomli asarida Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor boshqaruv yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar[5].

Mualliflar o‘z asarida xalqaro turizm rivojlanishining omillari, globallashtirish jarayonlarining turistik majmualar boshqaruv faoliyatiga ta‘siri, turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratganlar. M.M.Ramadonova va M.A.Makarchenkolarning “Gosudarstvennoye regulirovaniye turisticheskoy deyatelnosti” nomli asarida turistik faoliyatni tartibga solish usullari, vositalari va shakllari yoritib berilgan. Bunda turizm sohasini boshqarishda davlatning roliga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Biroq asarda turistik faoliyatni boshqaruv usullari va vositalari tasnifi ishlab chiqilmagan[6].

Bizning fikrimizcha, turizm – bu kishilarni o‘zlarining doimiy turarjoylaridan biron birmamlakatga vaqtinchalik yoki o‘z mamlakati hududidan boshqa biron birjoygabo‘sh vaqtida rohatlanish va xordiq chiqarish, sog‘lomlashtirish, tanishish yoki kasbiy-ishbilarmonlik maqsadlarida, lekin yetib kelgan joyida haq to‘lanadigan mehnat faoliyati bilan band bo‘lmagan holda vaqtincha joylashtirish demakdir. Shuningdek, turizm-bu davomli yashaydigan, ishlaydigan va muhim ehtiyojlarni qondiradigan joylardan tashqariga qilinadigan sayohatdir. Tunash vaqtinchalik zaruriy bir ehtiyojdir. Sayohatga chiqqan va tunab qolgan kishi, ma‘lum bir vaqtdan so‘ng o‘zi yashaydigan joyga qaytadi.Sayohatga chiqqan va vaqtincha tunaydigan kishilar asosan turizm korxonalarini tomonidan taklif qilinadigan mahsulot va xizmatlarni talab qilishadi. Bu faoliyatlari mobaynida turli xil voqea, hodisalar va munosabatlar yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada turistik majmualarni shakllantirish va boshqarish tahlili, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda boshqarish vositalari va usullarini tadqiq etishning muhim jihati sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, empirik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali turistik majmualar faoliyatini boshqarishning o‘stuvor yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chikilgan.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida turizm sanoati tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. U iqtisodiyotning mahalliy va xalqaro turizm xizmatlar bozorida yaratilayotgan tovarlar va xizmatlarni tahlil etish hamda ularning turizm industriyasini rivojlantirishga ko’rsatayotgan ta’sir doirasini ilmiy jihatdan chuqur o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi va asosiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolar hal qiladi.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarishda turistik majmualar tarkibiy qismlariga yondashuvlarning mavjud iqtisodiy va tashkiliy salohiyatni hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish soha rivojlanishining hozirgi bosqichida katta ahamiyatga ega. Bu turistik mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turistik mahsulotlar va hismatlar turini yaratish, turistik majmualar korxonalari o’rtasida gorizontal iqtisodiy aloqalar darajasini kengaytirish, turizm iqtisodiy oqimlarning intensivligini oshirish va soha faoliyati bilan bog’liq tarmoqlarning zaruriy darajadagi integratsiyasi bilan bog’liqdir.

Milliy statistika tizimidagi 2014-2020 yillar oralig’idagi turizm sohasining rivojlanish ko’rsatkichlari tahlili o’tgan 7 yil davomida sohaning jadal sur’atlar bilan rivojlanib borganligini ko’rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O’zbekistonda turizm sohasining asosiy ko’rsatkichlari dinamikasi[7]

№	Ko’rsatkichlar	Yillar						
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
1	Mamlakat ichidagi turizm iste’moli, mlrd. so’m	13576,2	14010,7	13772,5	16568,3	20561,3	27696,0	5271,2
2	Turizm sohasi tomonidan taklif etilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so’m	6651,7	7203,8	7809,0	8261,9	8658,4	9333,8	8540,4
3	Turizm sohasida band bo’lgan aholi soni, ming kishi	185,0	188,4	170,9	187,6	201,0	230,5	189,2
4	Turizm sohasi bilan bog’liq xizmat ko’rsatish sohalari faoliyat natijalari							
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari, mlrd. so’m	1118,7	1302,5	1502,5	1693,8	1823,9	1967,1	1690,2
	Madaniyat va san’at, mlrd. so’m	354,6	373,5	414,7	439,3	547,8	655,8	624,5
	tashish va saqlash, mlrd. so’m	14052,3	14905,7	15725,5	17509,0	18713,4	19950,6	19520,2
	Savdo xizmatlari, mlrd. so’m	12717,6	14095,8	15325,2	15483,6	16275,4	17429,9	17724,1

2014-2020 yillarda mamlakat ichidagi turizm iste’moli darajasi aholi sonining ortishi, turmush farovonligining ko’tarilishi hisobiga barqaror ortib borgan. Agar 2014 yilda mamlakat ichidagi turizm iste’moli hajmi 13576,2 mlrd. so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2019 yilga kelib bu ko’rsatkich 2 martadan ortiqroq o’sib, 27696,0 mlrd so’mga yetgan. Biroq 2020 yilda pandemiya sharoitida aholining turizm xizmatlariga bo’lgan talabining mavjud shart-sharoitlarga bog’liq holda pasayishi natijasida bu ko’rsatkich 2014 yildagi ko’rsatkichdan 2,5 marta kamaygan.

Turizm sohasining rivojlanishi bir vaqtning o’zida faoliyat yo’nalishlari kesishuvchi tarmoq va sohalarning rivojlanishiga ham o’z multiplikativ ta’sirini ko’rsatadi. Xususan, turizm sohasining rivojlanishi xizmatlar sohasining asosiy bo’g’inlari hisoblangan yashash va

ovqatlanish xizmatlari, madaniyat va san’at, tashish va saqlash xizmatlari, chakana savdo sohalarining rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ushbu ko’rsatkichlar tahlili ham asosiy turizm sohasi bilan bog’liq bo’lgan xizmat sohalarining rivojlanish darajasi parallel o’zgarish tendensiyalarini ko’rsatmoqda.

Turistik majmualar faoliyati boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish va uning samaradorligini baholashda SWOT-tahlildan keng foydalaniladi. Bu turdagi tahlilni amalga oshirish orqali turistik majmuaning kuchli va kuchsiz taraflarini aniqlash orqali turistik majmualar faoliyatida kutilayotgan riskli vaziyatlar haqida tegishli xulosalarga kelish mumkin bo’ladi. SWOT-tahlili quyidagi to’rt yo’nalish asosida amalga oshirildi:

- **“Strengths”** turistik majmuaning kuchli taraflari – ya’ni, turistik mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish uchun o’sib borayotgan barqaror real talabning mavjudligi;

- **“Weaknesses”** turistik majmuaning zaif jihatlari – turistik majmuani shakllanitirish uchun zaruriy infratuzilma tizimi va boshqaruvning klasterli yondashuvi yetarli darajada shakllanmaganligi;

- **“Opportunities”** turistik majmuaning imkoniyatlari – turizm sohasini rivojlanishi borasidagi mintaqaviy va davlat dasturlarining amalga oshirilishi;

- **“Thresats”** xavf-hatarlar/risklar – turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida xalqaro texnologik taraqqiyot darajasidan ortda qolish kabi salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarning mavjudligi.

2-jadval

Turistik majmualarni samarali boshqarishning SWOT tahlili¹

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
1. Alohida ustunlikka ega bo’lgan turistik korxonalar mavjud bo’lgan hududlarning xom-ashyo va resurs salohiyati. 2. Turistik korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini qo’llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosatining mavjudligi. 3. Davlatning turizm sohasi rivojlanishini ta’minlovchi muhitni shakllantirish bo’yicha Konsepsiyasining mavjudligi. 4. Turistik mahsulotlaridan foydalanish uchun o’sib borayotgan barqaror real talabning mavjudligi. 5. Turizm soha yo’nalishlari bo’yicha mutaxassislar tayyorlovchi ta’lim tizimi mavjudligi.	1. Mavjud salohiyatdan yuqori darajada foydalana olmaslik. 2. Ishlab chiqarilayotgan turistik mahsulotlarining xalqaro standartlarga mos kelmasligi. 3. Turistik korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi. 4. Turizm sanoati uchun zaruriy infratuzilma tizimi va boshqaruvning klasterli yondashuvi yetarli darajada shakllanmaganligi. 5. Turizm mahsulotlarini istemolchilarga reklama orqali yyetkazib berish sifatining past darajasi. 6. Turistik korxonalar boshqaruvining to’la raqamlashmaganligi.
Imkoniyatlar	Xatarlar
1. Turizmni rivojlanishi borasidagi mintaqaviy va davlat dasturlarining amalga oshirilishi. 2. Urbanizatsiya (shaharlashuv) darajasining ortishi natijasida sifatli turistik mahsulotlarning yangi turlarining shakllanishi va real talabning ortishi. 3. Turizm sanoatida qiymat zanjirining shakli va uni boshqarish darajasining ortib borishi.	1. Jaxon savdo tashkilotiga qo’shilish natijasida xalqaro turizm bozordagi yetakchi turistik korxonalar bilan raqobatning yuzaga kelishi. 2. Raqobatchilarning paydo bo’lishi natijasida milliy turistik korxonalar daromadlarining raqobatchilar o’rtasida taqsimlanishi.

4. Aholi sonining barqaror ortib borishi bilan turistik mahsulotlariga bo'lgan real talabning ortib borishi.	3. Turistik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida xalqaro texnologik taraqqiyot darajasidan ortda qolish.
5. Turistik korxonalarida investitsion jozibadorligining ortishi.	4. Mavsumiylik ta'siridagi turistik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda talabning o'zgarishi natijasida daromadlar darajasining tebranishi.
6. Investitsiyalar hisobiga yangi quvvatlarni ishga tushirish va turistik majmualar boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish asosida xarajatlarining kamayib borishi.	5. Turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish yo'nalishidagi tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarning cheklanishi.
7. Resurs ta'minotini raqamli boshqarish platformalari asosida tashkil etish bilan turizm korxonalarini boshqaruv xarajatlarining qisqarishi.	

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, SWOT-tahlili natijalari asosida turizm bozordagi aniq vaziyatni baholash, turistik majmualarning zaif va kuchli jihatlarni aniqlash asosida uni boshqarishning ustuvor strategiyalarini belgilash, turistik majmua faoliyatidagi mavjud muammolar, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar natijasida turistik majmualar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va rivojlanish imkoniyatlari borasidagi xulosalarga kelish mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, SWOT-tahlilni amalga oshirish orqali turistik majmualar faoliyati boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini aniqlash va uni takomillashtirish yuzasidan umumiy xulosalarni olishga erishiladi. Ammo ushbu usul bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadqiqotni natijalariga yanada aniqlak kiritish maqsadida, SWOT-tahlil bilan parallel ravishda turistik korxonalar raqobatbardoshligini tavsiflovchi moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Turistik majmualar tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi turistik korxonalar boshqaruv samaradorligini baholashda aksariyat boshqaruvchilar faqatgina miqdor ko'rsatkichlarni qiyosiy taqqoslashga asoslanadilar. Boshqaruv samaradorligini baholashning mazkur uslubiyoti korxonalar amaliyotiga joriy etilayotgan boshqaruv mexanizmlarining daromadlilik va rentabelligi darajalari o'rtasidagi nisbatlarni qiyosiy taqqoslashga asoslanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalar boshqaruvini samaradorligini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholashning quyidagi usullari shakllangan: absolyut usul, qiyosiy tahlil usuli, aralash usul.

Yuqorida keltirib o'tilgan turistik korxonalar boshqaruv samaradorligini baholashning turli ilmiy-nazariy usullarini umumlashtirgan holda, bugungi kunda umumqabul qilingan yagona baholash amaliyoti shakllanmagan degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Turistik korxonalar boshqaruvini samaradorligini baholash maqsadida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari, obyekti va uning predmetidan kelib chiqqan holda iqtisodchi olimlar tomonidan turli baholash uslubiyotlaridan parallel ravishda foydalanilishini kuzatish mumkin bo'ladi. Mazkur vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatimiz amaliyoti uchun xos bo'lgan nafaqat turistik korxonalar balki, u xo'jalik faoliyati yuritayotgan tarmoqning yaxlit holda boshqaruv samaradorligini kompleks baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, turistik majmualar faoliyatini boshqaruv amaliyotida rivojlanish xolatini baholovchi usullardan foydalanishda turistik majmualarning faoliyat ko'rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda boshqaruv strategiyalari tamoyillari

asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – turistik majmua faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – turistik majmualarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, turistik majmuaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Hududlarda turistik majmualarni shakllantirish va boshqarishda quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Mintaqaning mavjud tabiiy salohiyatidan oqilona foydalanish;
- Mintaqa hududida yuqori samarali va raqobatbardosh turistik majmuani yaratish va rivojlantirish;
- Turizm sohasidagi tadbirkorlikning turli ko‘rinishlari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сонли фармони.

2. Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. –Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.4-бет.

3. Биржаков М.Б. Туристические услуги, работы, товары. –Москва–Санкт-Петербург: Издательство «Невский фонд» – «Издательский дом Герда», 2003. С.108.

4. Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // И.ф.д. дисс. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. 25-26-б.

5. Сурков С.Г. Международный туризм в России: проблемы развития и управления / С.Г. Сурков, В.И. Криворучко. – М.: Советский спорт, 2009. – 214 с.

6. Рамадонова М.М., Макаренко М.А. Государственное регулирование туристической деятельности //Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.

7. Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

8. Мирзаев А.Т. Туристик-рекреация корхоналари фаолиятини бошқаришнинг иқтисодий самарадорлиги таҳлили // Иқтисодиёт ва таълим. -2019, №6. 214-219-б.

9. Mirzaev A.T. Assessment of cluster formation in management of recreational activity. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science”, Philadelphia, USA. 04, (84), 2020. – 605-610-pp.p -ISSN: 2308-4944. <http://T-Science.org>